



FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING F A R M O Y I S H I

2022 - yil 17 - may

90-11-157-F/22

Qo‘shtepa tuman hokimligi

Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28, 73-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvar kungi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda Qo‘shtepa tuman Tibbiyot birlashmasining 2022-yil 16-maydagi 01-01/401-sonli xatini inobatga olib,

1. Qo‘shtepa tuman Tibbiyot birlashmasi asosiy serqatnov yo‘lda joylashganligi sababli bemorlar va tibbiyot xodimlarining shifoxonaga xavfsiz kirib-chiqishlarini ta‘minlash maqsadida piyodalar va transport vositalarini harakatini tartibga soluvchi ko‘chma svetafor o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 20,0 (yigirma) million so‘m mablag‘ belgilangan tartibda tuman Tibbiyot birlashmasiga ajratilsin.

2. Tuman Tibbiyot birlashmasi (O.Murodov)ga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni moliya va g‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligining moliya bo‘limi (I.Akbarov)ga ajratilgan mablag‘lar

doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatga olish va budget xarajatlari rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish, tuman g'aznachilik bo'linmasi (G'.Raximov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Yunusov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov